

**Nilufar JO'RAQULOVA**  
**Temur qizi**

**TONG TUHFASI**

She'rlar


**Qarshi**  
**«Nasaf» nashriyoti**  
**2005**

84(59)6-3

*She'r ko'ngil qatlaridan to'kilgan nurdir. Uning tovlanishi qalbdan tushib yana qalbni tebratib unga qaytishi - unga yo'l topishidir. She'riyat bo'stoniga bo'ylayotgan umidli yosh qalamkashning ushbu «Tong tuhfası» she'riy majmuasini o'qib chiqsangiz uning dil durdonalaridan ogoh bo'lasiz,*

10 31207  
081

Ushnu kitobning chop etilishida o'zining moddiy va ma'naviy yordamini ayamagan Mirishkor irigatsiya tizimi boshqarmasi boshlig'i Normurod Hazratovga muallif o'zining samimiy minnatdorchiligini bildiradi.



J 4702620202-316 316-2005  
376 (02) 2005

© N. Jo'raqulova-2005

ISBN 5 - 7323-0505

## O'ZBEKISTONIM

Osmoning musaffo, bag'ring beg'ubor,  
Bu Vatanda yashagan xalqning baxti bor.  
Gullagan, yashnagan hur gulistonim-  
Mustaqil va ozod O'zbekistonim.

Havas qilsa arzir bu qo'rg'onlaring,  
Seni qo'riqlaydi mard o'g'lonlaring.  
Nurlarga, gullarga makon bo'stonim-  
Mustaqil va ozod O'zbekistonim.

Sportda dunyoga tanilganing rost,  
G'urur va faxrlar senga juda xos.  
Dunyoga tanilgan nur gulistonim-  
Mustaqil va ozod O'zbekistonim.

## MIRISHKOR

Mehnat qiladi doim,  
Boshidadir Humoyi  
Qizlaridir guloyim,  
Mirishkor - yashar joyim.

Temur bobom so'zi bor,  
Avliyolar izi bor.  
Uning mendek qizi bor,  
Mirishkorim baxti bor.

Osmonida quyoshi,  
Balanddir doim boshi,  
To'kilmagan ko'z yoshi,  
Bu Mirishkor bardoshi.

So'zlarida bordir bol,  
Quchgandir doim iqbol.  
Qilgan mehnati halol,  
Mirishkor, ko'rma zavol.

## **TINCHLIK VA DO'STLIK**

Tinchlik so'zi ulug'vor,  
Unda buyuk ma'no bor.  
Ozodlik va hurlikdir,  
Totuvlik, ham birlikdir.

Do'stlik tinchlikka garov,  
U bilan yo'q hech bir yov.  
Qaydagi do'stlik bo'lar,  
Izidan tinchlik kelar.

Ikki so'z va tushuncha,  
Ma'no kasb etar shuncha.  
Do'stlik insonga xosdir,  
Tinchlik ellarga mosdir.

Ular bilan xalq totuv,  
Buzolmas Chingiz, Botu.  
Qaytmang do'stlik so'zidan,  
Tinchlik kelar izidan.

## **OZODLIK MADHI**

Ming to'qqiz yuz to'qson bir sana,  
Ko'zlar yoshga to'ldi-ku yana.  
Bu g'am-alam ko'z yoshi emas,  
Bu g'amlardan nishona emas.

Bu kun quyosh ozod nur sochar,  
Bu kun istiqbol ham yuz ochar.

Haldir endi xalqning taqdiri,  
Ozod endi dala-yu qiri.  
O'ziniki paxta-yu doni,  
Bu esa tinchlikning nishoni.

Yoddan chiqarmaylik biz shuni,  
Birinchi sentyabr-ozodlik kuni.

O'zbeklar ko'ksiga tegdi-ku shamol,  
Farzandlar mehrdan toparlar kamol.  
Tinchlikning sha'ni yoqib mashala,  
O'zbekka risq berar har adir, dala.

## AJDODLAR

Amir Temur bobom tuzdi Turonni,  
Alisher Navoiy g'azal sultoni.  
Shiroqdir elimning asil o'gloni,  
Alpomish xalqimiz azal dostoni.

To'maris shijoat ichra yagona,  
Zulfiya, Nodira-buyuk durdona.  
Uvaysiy, Muazzam emasmu ona,  
Bu Vatan ularchun aziz ostona.

Abu Rayhon Beruniy ilm zabonin,  
Imom al- Buxoriy hadis karvonin.  
Jaloliddin Manguberdi qilich-qalqonin,  
Temur Malik kabi Xo'jand jahonin.

Bobur ham shoh, ham shoir,  
Behzod bobomga doir.  
Ne desam ham oz bo'lur,  
San'atda dil so'z bo'lur.

Bobolarim Mashrab she'rlari,  
Asir qilar Turkiy yerlarni.  
Hajv ila lirik Muqimiy,  
O'lug'bekning xotiri boqiy.

Aytaversam ajdodlarim ko'p erur,  
Faxr etsam ko'nglim g'ururga to'lur.  
Buyuklar xotirasi asrlarga teng bo'lur,  
Buni bilgan inson buyuk kelajak qurur.

## MUALLIM

O'quvchini o'qitib,  
To'g'ri yo'lni ko'rsatib,  
Beradi bizga ta'lim,  
Aziz ustoz muallim.

Saboqlari dilimda,  
Qadrlidir elimga,  
Qilaylik sizga ta'zim,  
Aziz ustoz muallim.

Yaxshilikka o'rgatar,  
To'g'ri yo'lni ko'rsatar,  
Sening-la tutdim qalam,  
Aziz ustoz muallim.

Qalam tutding qo'limga,  
Ziyo sochding yo'limga,  
Sen yo'l topding dilimga,  
Aziz ustoz muallim.

So'zlarim endi biyron,  
Yozaman ildam chaqqon,  
Tashakkur sizga har on.  
Aziz ustoz muallim.

Dilda yoruq nurdirsan,  
Qimmatbaho durdirsan,  
Qalblarda g'ururdirsan,  
Aziz ustoz muallim.

## KITOB

Qalbim sahifasin to'ldirgan o'zing,  
Dilimga bo'lgan jo har aytgan so'zing.  
Ertaklar eshigin o'zing ochgaysan,  
Yurakka ezgulik nurin sochgaysan.

Asli senda ko'rdim harflar borin,  
Senga bayon etgan yulduzlar zorin.  
Biliming sig'magay Zarafshon, Norin,  
Kitobim, sening-la hayotim shirin.

So'zlaysan gohida ona Turonni,  
Senga nomi qolgan ne-ne qasrlar.  
Goh yodga solursan butun jahonni,  
Sahifangga jodir necha asrlar.

Keraksan har kimga har nega har on,  
Seni o'qimagan bo'lmas chin inson.  
O'zing bizlar uchun ne'matsan aziz,  
Hatto kitob e'rur muqaddas hadis.

## **QALB SADOSI**

Qalbim ila sezdim shiviring sening,  
Qizim, deb chorlading mudom bag'ringga.  
Qalbinga taft berdi qaynoq quchog'ing,  
Ona yurt, tayyorman men xizimatingga.

Tinglagin, ey Vatan, yurak nidosin, ♦  
U har urganida sendan so'zlaydi.  
Rad etma bu murg'ak tilak sadosin,  
Baxtring cho'qqisini mudom izlaydi.

Men mitti gulingman, sen menga bog'bon,  
Bag'ringda porlagum bir yulduz misol.  
Qanot ber uchmoqqa ey sirli osmon,  
Vatanim, sening-la quchay hur iqbol.



## **TONG TUHFASI**

Erta tongda kirsam bog'imga  
Qiyg'os bo'lib pishibdi gilos.  
Urib ajib hid dimog'imga,  
Ko'zim tushdi o'rikka bexos.

Bir yonda rayhon taratar hid,  
Bir yonda quyosh sochadi nur.  
Mo'jizaga bo'ldimki shohid  
Gullar deydi tong nash'asin sur.

Bog'da savlat to'kar edi tut,  
Ma'zasiga tiling der bay-bay.  
Bu bog' bizga baraka-yu qut,  
Mevalari asalday, qandday.

Bog' yonida kungaboqarlar,  
Ko'zing yashnatadi olib sariq tus.  
Erta tong sabolar dilga xush yoqar,  
Qoning tong gullarin sharbatidan suz.

Arlar g'uwillab yig'ishadi bol,  
Chumoli inidan qo'zg'algani on.  
Dilda uyg'onadi shunday bir savol,  
Yana qaydan topay bunday havoni?

## YAXSHIDIR

A'lochi bolaga kitob yaxshidir,  
Bekorchi bolaga oftob yaxshidir.  
Iqlim o'rganuvchiga havo yaxshidir,  
Shifokorga albat davo yaxshidir.

Dono elga doim dono yaxshidir,  
Manmanlarga esa sano yaxshidir.  
Karvonga shubhasiz sarbon yaxshidir,  
Johil bo'lsa kimki qurbon yaxshidir.

Ilm izlovchiga ma'rifat darkor,  
Urush izlaganlar bo'ladi badkor.  
Elim deb, yurtim deb yongan inson chun,  
Elu yurtning tinchi doim yaxshidir.

## QISH

Hamma joyda izg'irin,  
Zulmin o'tkazmoq istar.  
Bu qish bobo tarxin,  
Bizga yetkarmoq istar.

Oq gilamin ochadi,  
Zahrin nega sochadi.  
Izg'ir dala-qirlarda,  
Barcha ochiq yarlarda.

Yaxshiligi shu uning,  
Yerlar olar xo'p damin.  
Fozil ona tabiat,  
Bahorga shaylar zamin.

Dov-daraxtlar olar dam  
Dam olar hayvonlar ham.  
Quyosh chiqar kamdan-kam,  
Yer doimo bo'lar nam.

## **BINAFSHA**

Tabiat mo'jiza yaratdi bu kun,  
Binafsha lforin taratdi bu kun,  
Bahor kelganidan berib daraklar,  
Endi barg yozadi azim teraklar.

Bu bahor go'zaldir hamda fusnkor,  
Har bir chechakda ham ulkan ma'no bor.  
Binafsha yerdan bosh oldi taftidan,  
Yorib chiqdi bugun zamin bag'ridan.

Qalblarni ilitar shu mitti chechak,  
Yurakka topar yo'l u aniq, beshak.  
Shu jajji gul ila ochilsin ko'zlar,  
Binafsha bahordek mo'jiza, do'stlar !

## **BAHOR YOMG'IRI**

Shivirlaydi bahor yomg'iri,  
Maysa-o'tlar ko'taradi bosh,  
Gumbirlagan chaqmoq ta'siri:  
Oq bulutlar ko'zlarida yosh.

Dalalarga yog'ar betinim,  
Anhorlarda o'ynoqlar goho.  
Tabiat-chi bu chog'da so'lim,  
Havo esa biram musaffo.

Bug'doylarga mo'l xosil berar,  
Yashnatadi bog'u rog'larni.  
Dehqon bobo rohatin ko'rar,  
Unitmaydi ushbu chog'larni.

Tog'lar lolazorga aylanar,  
Dov-daraxtlar gullaydi bunda.  
Yomg'ir bilan yerlar shaylanar,  
Dil zavq olar bundayin kunda.

## RAMAZON

O'tirgandim su'rib xayollar,  
O'z-ozimga berib savollar.  
O'ylarimni chalg'itdi shunda,  
Kelayotgan ajib navolar.

Aytar edi uni bir kishi,  
Jo'r bo'lishdir qolganlar ishi.  
Qo'shiq desam o'xshamaydi hech,  
Axir qo'shiq aytilmaydi kech.

Bo'lmasa ham biror sho'x so'zi,  
Kelardi ramazon ovozi.  
Ovozining boricha qo'yib,  
Bolalar aytishardi to'yib.

Rozi bo'lib olishar zakot,  
Zakot esa ovozga qanot,  
Beixtiyor mening ham birdan,  
Yozgim kelib qoldida bayot.

## TERAKVOY

Teragimiz bor baland  
Bo'yi osmonga yetar.  
Bechora bulutlarni  
Rahm qilmay yig'latar.

Bulutlar yig'laganda,  
Yomg'ir yog'a boshlaydi.  
Teraklar gerdayibon,  
Men qildim deb so'ylaydi.

Bir kuni gullab terak,  
Bulut yordami kerak.  
Bulutlar qaramadi,  
Terakvoy yayramadi.

Terakvoy-chi shumtaka,  
Aylandi bir kundaga.

## **KUZ**

Barglar shitiriga gar solsam quloq,  
Kuzning sirlarini sotib qo'yadi.  
Jahli chiqmasada kuzning ham, biroq,  
Shamol ila ularning bag'rin o'yadi.

Kuz yig'lar gohida misoli go'dak,  
Ba'zida kuladi, chiqmaydi uni.  
O'zgarar quvonchi, g'ami, shuningdek,  
Gohida bir xilqdir tuni va kuni.

Degim kelar kuzni sirli bir inson,  
Unda jumboq bisyor, ko'p erur savol.  
Ne ish qilishini aytmas hech qachon,  
Goh etsa munawwar, goh berur savol.

## MUNDARIJA

O'zbekistonim.....	3
Mirishkor.....	3
Ozodlik madhi.....	4
Tinchlik va do'stlik.....	4
Ajdodlar.....	5
Muallim.....	6
Kitob.....	7
Qalb sadosi.....	8
Tong tuhfasi.....	9
Yaxshidair.....	10
Qishda.....	10
Binafsha.....	11
Bahor yong'ini.....	12
Ramazon.....	13
Terakvoy.....	13
Kuz.....	14

*Adabiy-badiiy nashr*

**Nilufar JO RAQULOVA**

**Temir qizi**

**TONG TUHFASI**

**She'rlar**

Muharrir: *Z. Omonova*  
Texnik muharrir: *S. Musayev*  
Musahhih: *S. Hojiyev*  
Kompyuterchi: *A. Murodov*

**IB № 0837**

Terishga 24.01. 2005 yilda berildi. Bosishga 10. 02 . 2005 yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/32. Shartli bosma tabog'i 1,02 Shartli bo'yoq-ottisk 1,07. Nashr tabog'i 1,00. 174-2004-shartnoma. Buyurtma № 2079-2004. 250 nusxada. Erkin narxda.

**730018. Qarshi shahri, «Nasaf» nashriyoti, Mustaqillik shoh ko'chasi, 22-uy.**

«Grafika» MCHJ. Mustaqillik shoh ko'chasi.